

RAQAMLI TA'LIMNING PANDEMIYADAN KEYINGI RIVOJI.

Ilmiy rahbar: **Zaynobiddinova Gulbahor**

Bahtiyorovna

Andijon davlat chet tillari instituti talabasi

To'xtasinova Umidaxon.

Annotatsiya: Mazkur maqolada pandemiyadan keyingi davrda raqamli ta'limning holati, afzalliklari va qiyinchiliklari tahlil qilinadi. Shuningdek, ta'lim tizimini zamonaviylashtirish bo'yicha samarali yondashuvlar hamda O'zbekiston ta'lim tizimining raqamli transformatsiyasini yanada chuqurlashtirish bo'yicha tavsiyalar taqdim etiladi.

Kalit so'zlar: Raqamli ta'lim, **pandemiya**, **masofaviy ta'lim**, Oliy ta'lim muassasalari, ta'limning samaradorligi, **onlayn ta'lim**.

Annotation: This article analyzes the state, advantages, and challenges of digital education in the post-pandemic period. Additionally, it presents effective approaches to modernizing the education system and provides recommendations for further deepening the digital transformation of Uzbekistan's education system.

Keywords: Digital education, pandemic, distance learning, higher education institutions, education effectiveness, online learning.

Аннотация: В данной статье анализируется состояние, преимущества и трудности цифрового образования в постпандемийный период. Кроме того, представлены эффективные подходы к модернизации системы образования и даны рекомендации по дальнейшему углублению цифровой трансформации образовательной системы Узбекистана.

Ключевые слова: Цифровое образование, пандемия, дистанционное обучение, высшие учебные заведения, эффективность образования, онлайн-обучение.

Ma'lumki, XXI asrda ta'lim sohasida raqamli texnologiyalardan ta'lim sohasida keng foydalanish ta'lim jarayonini tubdan o'zgartirdi. COVID-19 pandemiyasi esa bu o'zgarishlarni yanada tezlashtirdi va masofaviy ta'lim tizimlarining ahamiyatini oshirdi. Pandemiya sharoitida ta'lim texnologiyalaridan foydalanish nafaqat zarurat, balki ta'limni yanada samarali va moslashuvchan qilish imkoniyatlarini ham namoyon etdi.

Pandemiya boshlanishidan oldin O'zbekiston ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar unchalik rivojlanmagan edi. Keng tarqalgan raqamli platformalar va onlayn darslar mavjud emasdi. Ta'lim tizimi an'anaviy shaklda olib borilar edi, bu esa ayrim hududlarda ta'lim olish imkoniyatlarini cheklardi. Internet va kompyuterlar bilan ta'minlangan maktablar soni past bo'lib, raqamli ta'lim tizimiga integratsiya qilish uchun zarur infratuzilma yetishmovchiliklari mavjud edi.

COVID-19 pandemiyasi ta'lim tizimini masofaviy ta'limga o'tkazishga majbur qildi. Yurtimizdagi hukumat a'zolari tezda masofaviy ta'lim platformalarini joriy etish va raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirishga harakat qildi. Maktablar va universitetlar onlayn ta'lim tizimlariga o'tib, o'quvchilar va talabalarga video darslar va onlayn resurslar orqali ta'lim berishni boshladilar.

Karantin davrida tashkil etilgan masofaviy ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarni rivojlanib kelayotgan raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirdi. Onlayn rejimda, turli platformalarda (ZOOM, TELEGRAM), ma'ruza o'tish va video darslar yozish (BANDICAM, OBS-studio) ko'nikmalari bunga misol bo'la oladi. Raqamli ta'limni joriy qilish orqali o'quvchilar va talabalar o'z uylaridan turib ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu esa ko'plab imkoniyati cheklangan, uzoq masofadan qatnovchi o'quvchilar uchun qulaylik yaratdi.

O'zbekistonda raqamli ta'limdan foydalanish, onlayn darslar tashkil qilish jarayonida ba'zi qiyinchiliklar yuzaga keldi. Bulardan:

- O'zbekistonning ba'zi hududlarida internetning tezligi va sifatiga doir muammolar borligi.
- Raqamli ta'limga o'tish uchun ba'zi o'qituvchilar va talabalar yetarli bilimga ega emasligi.
- Onlayn ta'limda shaxsiy aloqalar va guruh ishlari cheklangan ekanligi, eng asosiy muammolar edi.

Hozirgi kunda, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarini yanada ommalashtirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta'minlashni ko'zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish boshlangan.

Raqamli ta'limni yanada rivojlantirish uchun internet tezligi va raqamli texnologiyalarni barcha hududlarda bir xilda ta'minlash zarur. Shuningdek, o'qituvchilarni raqamli ta'lim texnologiyalariga moslashtirish uchun treninglar va kurslar o'tkazish, An'anaviy va masofaviy ta'limni birlashtirib, aralash ta'limni rivojlantirish kabi ishlarni olib borish barcha uchun manfaatli bo'lishiga ishonaman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Gazeta.uz, "**O'zbekiston ta'limida axborot texnologiyalarining ro'li**". (2024 yil, 31 oktyabr). <https://www.gazeta.uz/oz/2024/10/31/children-situation-analysis>.
2. O'zbekiston Respublikasi, **Raqamli ta'limni rivojlantirish to'g'risida qaror**. <https://lex.uz/docs/-5030957>
3. Daryo.uz, "**O'zbekiston va dunyoda onlayn ta'lim qanday rivojlanmoqda**". (2023 yil, 5-aprel). <https://daryo.uz/2023/04/05/ozbekiston-va-dunyoda-onlayn-talim-qanday-rivojlanmoqda>.

4. B.A. Begalov, M.K. Abdullayev. “Raqamli iqtisodiyot” / Darslik. - T.: «Iqtisodiyot», 2023. - 352 b.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.
6. “TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH AHAMIYATI” Saidova Saida